



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

A.K. Shadmanov

«9» dekabr 2021 yil

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Rektorat kengashining

5-sonli BAYONI

Toshkent shahar

«9» dekabr 2021 yil

Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Rektorat kengashi a'zolari
(ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

1. Xalqaro fakultet tomonidan doirasida bajarilayotgan ishlar, xalqaro fakultet faoliyati tahlili.

Ma'ruzachi - Xalqaro fakultet dekani Tursunov Djaxangir Xusanovich.

2. Korrupsiyaga qarshi kurash.

Ma'ruzachi - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Bobomuratov Turdikul Akramovich, Jamoatchilik kengashi raisi Usmanov Ravshan Jaxongirovich.

3. Akademiyada ijro intizomi.

Ma'ruzachi - Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Aliev Shavkat Rofievich.

4. Turli masalalar.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**



F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**



T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor




M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i



Sh.Sh.Massavirov

Yuriskonsult



B.N.Shukurov

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Q A R O R Q I L A D I :

1. Kun tartibining birinchi masalasi - Xalqaro fakultet doirasida bajarilayotgan ishlar, xalqaro fakultet faoliyati tahlili - mavzusida Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov ma'ruza qildi. Ma'ruza axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

1.1. Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o'rinlarda-Akademiya) professor - o'qituvchilari va talabalarining chet tillarni bilish darajasini ko'tarish, shuningdek xorijiy talabalar bilan faoliyat yuritadigan o'qituvchilar sonini oshirish maqsadida tibbiyot sohasida ingliz tilini o'rganish bo'yicha mahsus kurslar (IELTS, TOEFL va boshqa halqaro baholash dasturlari tizimi miqyosida) tashkil etilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov.

Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.

1.2. Xorijiy talabalarni o'qitish jarayoni Akademiyaning Ustaviga muvofiq olib borilishi ta'minlansin, jumladan talabalarni fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilsin va kerakli hollarda intizomiy choralar ko'rilishi ta'kidlab o'tilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, kafedra mudirlari.

Muddat: doimiy.

1.3. Xorijiy talabalarni o'qitishdagi o'quv adabiyotlar taftishi, jumladan o'qitilayotgan fanlarning xorijiy dasturlariga moslashganligi, ingliz tilidagi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlar tanqisligi tahlili o'tkazilsin hamda yangi o'quv adabiyotlarni sotib olish yoki Akademiya mavjud adabiyotlarni ingliz tiliga o'girish bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, Axborot resurs markazi direktori G.V.Kuzmina.

Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.

1.4. Akademiya va Qozon davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda talabalarni o'qitish va ta'lim sifatini o'rganish bo'yicha tahliliy taqqoslash tadqiqotlarni o'tkazilishi, moddiy texnik bazalarni solishtirma tahlili o'tkazilishi, shuningdek Akademiya va QDTUdagi mavjud o'quv jihozlarni afzalliklarini inobatga olgan holda Akademiya o'qitish jarayonini modernizatsiyalash bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor SH.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh.Q.Adilov, Bosh hisobchi A.Sh.Yulchiev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov.

Muddat: 2022 yil yanvar.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**



F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**



T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i



Sh.Sh.Massavirov

Yuriskonsult



B.N.Shukurov

1.5. Akademiya va Qozon davlat tibbiyot universiteti bilan qo'shma dastur doirasida ta'lim olayotgan 3-kurs Akademiya talabali bilan Akademiyaning obrusi, sharafi va qadri-qimmatini haqida uchrashuv va suhbatlar tashkil etilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor SH.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov.

Muddat: 2022 yil yanvar.

1.6. Akademiyaga nufuzli xorijiy chet el davlatlari tibbiyot muassasalari va markazlari 50 nafar professor-o'qituvchilarini fanlar bo'yicha off-layn va masofaviy ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, master-klasslar o'tkazishlari uchun jalb etish bo'yicha ishlar faollashtirilsin. Bunda fanlar doirasida o'quv majmua, o'quv-uslubiy hamda boshqa resurs va hujjatlar mavjudligiga va moslashganligiga alohida e'tibor qaratilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, Xodimlar bo'limi boshlig'i F.X.Azizova, barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.

1.7. Koreya universitetlari va klinikalari (Seoul National University Bundang Hospital, Korae University, Yonsei University, Pusan National University, Asan Medical Center, KOFIH koreya fondi, LUHA - plastic surgery clinic, SHARM Clinic, HIGEN tashkiloti), Germaniya (Xaydelberg), AQSH (Pitsburg) va Qozon universitetlari bilan shartnomalar bo'yicha o'quv, o'quv-uslubiy hamda ilmiy ishlar doirasida hamkorlik ishlari jadallashtirilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.

1.8. Akademiyada klinik ordinatura va magistraturaning yo'nalishlari doirasida xorijiy davlat tibbiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma dasturlar tayyorlanishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, Magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi – Korrupsiyaga qarshi kurash – mavzusidagi Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A.Bobomurotovning ma'lumotlari axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlar kuchaytirilishi ta'minlansin. Bunda barcha jarayonlarda (bakalavriatura, magistratura, doktoranturalarga o'qishga qabul qilish, talabalar orasidan seleksiya natijalari bo'yicha nomdor

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**

F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**

T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor

M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i

Sh.Sh.Massavirov

Yuriskonsult

B.N.Shukurov

stipendiyalarga nomzodlarni taklif qilish va barcha boshqa holatlarda) Akademiya jamoatchilik kengashlari (Akademiya Jamoatchilik kengashi, Xotin-qizlar kengashi, Ma'naviyat, ma'rifat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo'limi, Yoshlar Ittifoqi kengashi, xodimlar kasaba uyushmasi va boshqa) hamkorlikdagi yordami va nazorati ostida tizimli shaffoflikni ta'minlash bo'yicha ishlar faollashtirilsin.

Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A. Bobomuratov, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh.Q.Adilov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: doimiy.

2.2. Komplaens nazorat - O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish loyihagini amalga oshirish maqsadida Akademiyada yangi bo'lim tashkil etilsin, bo'sh ish joylariga xodimlar olinsin va reja bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A. Bobomuratov, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, yuriskonsult B.N.Shukurov.

Muddat: 2021 yil dekabr.

3. Kun tartibining uchinchi masalasi - Akademiyada ijro intizomi – mavzusidagi Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R.Alievning ma'lumotlari axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

3.1. Barcha xodimlarning bajargan ishlari bo'yicha kunlik, haftalik, oylik va yillik hisobot topshirishining elektron tizimi joriy qilinsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musoxonov, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R.Aliyev.

Muddat: 2022 yil boshidan.

3.2. 2022 yil 1 yanvar kundan boshlab bajargan ishlari bo'yicha hisobot topshirmagan, hujjatlar va murojaatlarning ijro muddatini buzgan hamda kamchilikka yo'l qo'ygan xodimlarga qattiq intizomiy jazo qo'llash choralari ko'rilsin. Shuningdek, intizomiy jazo qo'llanilganlarga oyliklariga berilayotgan ustama, qo'shimchalar va har qanday mukofotlarni olib tashlashni nazarda tutilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R.Aliyev, yuriskonsult B.N.Shukurov.

Muddat: 2022 yil 1 yanvardan boshlab.

3.3. Yuqoridagilarga asosan xodimlarga haqqoniy ish haqi to'lash tizimini joriy qilish choralari ko'rilsin.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**



F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**



T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor




M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i



Sh.Sh.Massavirov

Yuriskonsult



B.N.Shukurov

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Bosh xisobchi A.Sh.Yulchiyev, yuriskonsult B.N.Shukurov.

Muddat: 2022 yil 1 yanvardan boshlab.

3.4. Yig'ma-axborot tahlil bo'limini tashkillashtirish choralari ko'rilsin.

Mas'ul: Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov, Bosh xisobchi A.Sh.Yulchiyev.

Muddat: 2022 yil yanvar.

3.5. Akademiyaning barcha tarkibiy bo'linmalarida ish yuritish tizimini normativ – huquqiy hujjatlardan kelib chiqqan holda to'liq ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruh tuzilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh.Q.Adilov, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R.Aliyev, yuriskonsult B.N.Shukurov.

Muddat: 2022 yil yanvar.

3.6. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi hodimlari M.Sh.Mahamadjonova va F.Sh.To'xtaxo'jayevalar o'z vazifalarini to'liq bajarmaslik va mas'uliyatsizliklari uchun og'ohlantirilsinlar.

4. Turli masalalar bo'yicha O'quv ishlari prorektori Sh.A.Boymuradovning "2021-2022 o'quv yili kuzgi semestr akademik qarzdorligi mavjud talabalar haqida" (dekabr oyi holati) hamda "Talabaning sababsiz dars qoldirishi va o'zlashtirishi bo'yicha bajariladigan ishlar algoritmi" – mavzulardagi ma'lumotlari, Ilmiy va innovatsion ishlar prorektori F.L.Azizovning Akademiya xalqaro olimpiadaga tayyorgarligi haqida ma'lumotlari axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan). SHuningdek, Akademiya kengashi kotibi G.A.Ismailova Olmazor tumani prokuraturasi tomonidan 2021 yil 24 noyabrdagi "Jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon yaratib bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan" 125/298n-21-conli taqdimnomasi bilan kengash a'zolarini tanishtirdi, bo'lib o'tgan muhokamasidan so'ng tegishli chora-tadbirlar qabul qilindi.

4.1. Kafedra professor-o'qituvchilarining fanlar kesimida bilim berish va ob'ektiv baholash darajasi o'rganilib chiqilishi, qarzdor va sababsiz dars qoldirgan hamda o'zlashtirishi sust bo'lgan talabalar bilan ishlash algoritmi Nizomga muvofiq bajarilishi ta'minlansin, shuningdek, mavjud muammolarni echimi bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh.Q.Adilov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022 yil yanvar.

4.2. Akademiyaning strategik rejasi (10-20 yillik) ishlab chiqilishi maqsadida nufuzli xorijiy davlatlar ta'lim muassasalari (Evropa, Osiyo, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya) tajribasi o'rganilib chiqilsin, shuningdek, mavjud jarayonlarni o'rganish bo'yicha

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**

F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**

T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor

M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i

Sh.Sh.Massavirov

Yuriskonsult

B.N.Shukurov

ishchi guruhlarga rais etib professor O.R.Teshaev (o'quv va o'quv-uslubiy sektor) hamda professor A.O.Oxunov (ilmiy sektor) tasdiqlansin. Ishchi guruhlar tarkibiga boshqa a'zolar nomzodlari kiritishi bo'yicha takliflar berilsin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi. Rektorat Kengashi o'z ishini yakunladi.

**Oliy ta'lim muassasasi
kengash kotibi**



G.A.Ismailova

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**



F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**



T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i



Sh.Sh.Massavirov

Yuriskonsult



B.N.Shukurov